

BADIIY TARJIMA JARAYONIDA USLUB VA USULLARNING QO‘LLANILISHI

Kamola Aripova Yusupova

International Islamic Academy of Uzbekistan

Senior teacher of the Department of Foreign Languages

90 981-46-15 e-mail: kamolakind@mail.ru

ABSTRACT

The selection of style and methods in the process of literary translation must be carried out in accordance with the content, genre, and author's style of the work. The translator complexly utilizes methods such as adequate translation, free translation, stylistic adaptation, and equivalent substitution to preserve the imagery, emotional tone, and aesthetic value of the text. Each stylistic solution serves to convey the author's artistic purpose to the reader, while simultaneously mitigating linguistic and cultural differences and helping to preserve the unique spirit of the work. Therefore, the effective application of translation methods is one of the main factors ensuring the aesthetic and meaningful perfection of a literary work.

Key words: literary translation, translation method, translation techniques, word-for-word translation, creative translation, adaptation, tabdil translation (intralingual translation), image-based translation (idiomatization)

АННОТАЦИЯ

Выбор стиля и методов в процессе художественного перевода должен осуществляться в соответствии с содержанием, жанром и авторским стилем произведения. Переводчик комплексно использует такие методы, как адекватный перевод, вольный перевод, стилистическая адаптация и эквивалентная замена, чтобы сохранить образность, эмоциональный тон и эстетическую значимость текста. Каждое стилистическое решение служит для донесения художественного замысла автора до читателя, смягчая при этом языковые и культурные различия и помогая сохранить своеобразие произведения. Следовательно, эффективное применение методов перевода является одним из основных факторов, обеспечивающих эстетическое и содержательное совершенство художественного произведения.

Ключевые слова: художественный перевод, метод перевода, приемы перевода, дословный перевод творческий перевод, адаптация, табдил-перевод (перевод-табдиль), образный перевод (идиоматизация).

ANNOTATSIYA

Badiiy tarjima jarayonida uslub va usullar tanlovi asar mazmuni, janri va muallif uslubiga mos holda amalga oshirilishi lozim. Tarjimon matndagi obrazlilik, emotsional ohang va estetik ahamiyatini saqlash uchun adekvat tarjima, erkin tarjima, stilistik moslashtirish, ekvivalent almashtirish kabi usullardan kompleks foydalanadi. Har bir uslubiy yechim muallifning badiiy maqsadini o'quvchiga yetkazishga xizmat qilishi bilan birga, til va madaniy farqlarini yumshatib, asarning o'ziga xos ruhini saqlashga yordam beradi. Shu bois, tarjima usullarining samarali qo'llanishi badiiy asarning estetik va mazmuniy mukammalligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

Kalit so'zlar: *badiiy tarjima, tarjima uslubi, tarjima usullari, so'zma-so'z tarjima, ijodiy tarjima, adaptatsiya (moslashtirilgan tarjima), tabdil tarjima, obrazlashtirish (idiomalashtirilgan tarjima)*

KIRISH

Tarjima faoliyati deganda, odatda, yozma yoki og'zaki matnlarni ekvivalent tarzda boshqa tildagi matnga o'tkazish jarayoni tushuniladi. Umuman olganda, tarjimaning maqsadi har xil turdagi matnlarni, jumladan, diniy, adabiy, ilmiy va falsafiy matnlarning boshqa tildagi nusxasini paydo qilish va shu orqali ularni ko'proq o'quvchilarga taqdim etishdan iborat.

Badiiy matnni boshqa tilga o'girish uchun tarjimondan badiiy mahorat, ijodiy qobiliyat va yuksak dunyoqarashga ega bo'lish talab etiladi. Tarjima faoliyati juda nozik, murakkab jarayon hisoblanadi. Negaki, tarjimon biror asarni muvaffaqiyat bilan tarjima qilish uchun asar yozilgan tilni ham, u tarjima qilinayotgan tilni ham mukammal darajada bilishi lozim. Bundan tashqari, asarning yozilish uslubi, unda qatnashgan qahramonlarning tabiati, turmush tarzi, dunyoqarashi, ruhiyati, asarda aks ettirilgan tarixiy, diniy hamda milliy qarashlarni batafsil o'rganish badiiy tarjimaning asosiy shartlaridan sanaladi. Tarjimani muvaffaqiyatli deb hisoblashimiz uchun asar boshdan oxirigacha badiiy yaxlitligi buzilmagan holda qolishi, unda ishlatilgan badiiy unsurlar, ma'no nozikliklari asl holida tasavvur qilinishiga erishish lozim¹. Asar tarjimasi davomida shunday holatlar ham uchraydiki, matnning kichik parchasini o'qib turib ham ifodalanayotgan fikrni tushuna olmaymiz. Asar tili hamda tarjima tili o'rtasidagi farqlarni to'liq anglagan holda, asar ma'nosini buzmasdan kerakli so'zlarni topish ijodkordan katta mahorat talab etadi. Ba'zi til birliklarining boshqa tilda umuman muqobilga ega bo'lmasligi, ba'zi so'zlar tarjimasini birdaniga tushunib bo'lmasligi, buning uchun boshqa tilda izoh berishga

¹Jo'rayeva M. Tarjimada muallif uslubining berilish muammolari. Magistrlik dissertatsiyasi, 2011. – B.8.

ehtiyoj sezilishi kabi holatlarda tarjimonlar o'z bilimi va badiiy mahoratiga tayanishlari talab etiladi. Bilamizki, o'zbek tilida yoshi kattalarga va boshqa hurmatli shaxslarga nisbatan "siz" deb murojaat qilinadi. Biroq bu holat ko'pchilik tillarda mavjud emas. Masalan, rus tilida "sen" va "siz" ma'nosi "Ты" hamda "Вы" tushunchalari bilan farqlansa-da, ularning qo'llanish holatlari va vazifasi o'zbek tilidagi kabi emas. Buni biz ruslarning yaqin insonlar, jumladan, ota-ona bilan munosabatlarda "Ты" so'zi qo'llanishida ko'rishimiz mumkin. Ingliz tilida esa bu holat yanada farqli: tinglovchining yoshi, shaxsi, hattoki sonidan qat'i nazar "you" olmoshi qo'llaniladi. Ammo bu tillarda nutqiy vaziyatlarda hurmat ma'nosi umuman aks etmaydi, deyish noto'g'ri bo'ladi. Qahramonning "siz"lab yoki "sen"lab murojaat qilayotgani umumiy matnni o'qish davomida anglashiladi, bu ma'noni tarjima jarayonida aniqlab, ifodalab berish tarjimonning oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tildagi barcha unsurlarni tadqiq etib, ulardan o'rinli tarzda foydalanish orqali bir tilda ifodalanayotgan fikrning milliy, madaniy ifoda jihatlari buzilmasdan, boshqa tilga olib o'tiladi². "Kecha va Kunduz" romanidan olingan ushbu parchani tahlil qilamiz:

"O'zingiz, axir, "Mayli, eshonoyimning ra'ylariga qarasin", demabmidingiz?"

E, ra'ylari qursin, ra'ylari! Yosh bolani bir hafta — o'n kun saqlaydimi?"³

Keltirilgan matnda "ra'ylari" so'zi tarkibidagi "lar" qo'shimchasi grammatik ko'plik emas, uslubiy vazifa bajargan bo'lib, birinchi gapda u hurmat, ikkinchi gapda esa kesatq ma'nolarini ifodalab kelgan. Ingliz tilida esa o'zbek tilining o'ziga xos jihati sifatida "lar" qo'shimchasi anglatgan uslubiy ma'noni ingliz tilida ifodalay olmaymiz, shu sababli tarjimon bu o'rinda asosiy e'tiborni matnning ma'nosiga qaratgan:

"You yourself said, 'Fine, do what the eshon's wife says,' did you not?"

"To hell with what she says. You can't keep a child away for so long!"⁴

Asliyat matnida "ra'ylari qursin" deyish orqali qahramon Razzoq so'fining noroziligi ifoda etilgan, ingliz kitobxonlariga bu ma'noni yetkazib berish uchun esa bu til so'zlashuvchilariga ma'lum bo'lgan "to hell" so'zidan foydalanilgan. Demak, bu misol orqali asliyat va tarjima tili o'rtasidagi nozik farqlarni tushunishning tarjima jarayonidagi o'rnini ko'rishimiz mumkin.

Badiiy mahorat bilan qilingan tarjima o'quvchida asarga bo'lgan qiziqishni oshiradi, estetik zavqini kuchaytiradi. Ko'p vaqtlar davomida jahon adabiyoti, jumladan, ingliz adabiyoti namunalarining o'zbek tiliga kirib kelishida rus tilidan "ko'prik" sifatida foydalanilgan va hozirda ham bu jarayon ma'lum ma'noda davom

²Jo'rayeva M. Tarjimada muallif uslubining berilish muammolari.-Toshkent: 2011. – B.15.

³Cho'lpon A. Kecha va kunduz. -Toshkent: "Sharq", 2000. – B.7. ; O'sha asar., B.73.

⁴Fort C., Night and Day. –Central Asian Literatures in Translation. Boston, 2020. – P.101

etmoqda. Shunday bo'lsa-da, badiiy tarjima jarayonida boshqa bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ularni o'rganib, yechim topish soha vakillari uchun muhim masala bo'lib qolmoqda. Asarning yozilish uslubi, o'ziga xos jihatlarini tarjima qilayotgan tilda ham aks ettira olish asarning qadrini oshiradi, muallifning dunyoqarashini tushunishni osonlashtiradi. Asardagi badiiy xossalarni, milliylik ruhini, muallifning yetkazmoqchi bo'lgan maqsadi va ruhiy kechinmalari, ijodiy uslubini saqlab qolgan holda boshqa til o'quvchisiga yetkazishning yagona yo'li tarjima sohasining nozik qirralarini o'rganish orqali bo'ladi⁵.

Asarni bir tildan boshqa tilga o'girishda uning ma'nosini saqlab qolish yoki texnik tarjimaga urg'u berishning qaysi biri ahamiyatliroq ekanligi to'g'risida turli qarashlar mavjud. XIX asrga qadar tarjimashunoslar o'rtasida bu masalaga oid ko'plab munozaralar bo'lib o'tgan. O'sha paytdagi ko'plab olimlar matnning faqat ma'no jihatiga diqqat qaratib, undagi ma'lumotni tarjimada ifodalay olsak bo'ldi, deb hisoblaganlar. Volter Benjamin va Vladimir Nabakov kabi olimlar bu fikrga qarshi chiqib, tarjima jarayonida asar mazmuni bilan birgalikda uning ifodalanish uslubi, unda qatnashgan badiiy vositalar, muallifning shaxsiy ifoda uslubi ham muhim ekanligi, bu jarayonda kitobxonlarning madaniy ongi, qadriyatlari, dunyoqarashi, bilim va saviyasini e'tiborga olish kerakligini yoqladilar. Tilshunos olim, "Textbook of translation" (ma'nosi "Tarjima kitobi") asari muallifi P.Nyumarkning fikriga ko'ra, "metod" terminini tarjima uslublariga nisbatan qo'llash muvofiq bo'ladi. Shuningdek, olim tarjimonlik faoliyatida qo'llanuvchi usullarni quyidagicha farqlaydi:

So'zma-so'z tarjima. Bunda asardagi har bir so'zni birma-bir tarjima qilish tushuniladi. Biroq tarjimaning bu usulida asarning badiiy uslubi, o'ziga xos xususiyatlari, kitobxonga nisbatan hissiy ta'sir kuchini to'liq aks ettirish imkoni mavjud emas. Asardagi so'zlarning lug'aviy jihatiga urg'u berilib, ularda ifodalangan ko'chma ma'nolar e'tibordan chetda qolsa, asar faqatgina ma'lumotlar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi. Natijada, asarning milliy, tarixiy va hissiy ta'sir kuchi yo'qolib, uning o'rnini uslubiy neytral vositalar egallaydi, asarning maqsadi, g'oyaviy ruhi yo'qoladi.

1975 yilda tarjimashunoslar konferensiyasida "So'zma so'z tarjima va to'laqlonlilik darajasi" nomli ma'ruzasida M.Gasparov tarjimada har bir so'zni birma-bir o'girish umuman foydasiz deya ta'kidladi. Uning fikricha, asarni so'zma-so'z tarjima qilishda undagi badiiy shakl hamda mazmun o'rtasidagi til uslubi, dialektik mujassamlashuv umuman yo'qolib ketadi⁶.

⁵Hamidov X. Badiiy tarjimada so'z tanlash muammosiga doir. Sharqshunoslik. - Toshkent: ToshDSHI, 2013. – B.24.

⁶ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. - Toshkent: O'zbekistan Respublikasi FA „Fan“ nashriyoti, 2005. – B.88-89.

Shuningdek, asarni soʻzma-soʻz tarjima qilishda unda ifodalangan nozik maʼnolar yoʻqolib ketishi mumkin, holbuki, badiiy matnda, ayniqsa, soʻzning pragmatik maʼno qatlami va uslubiy maʼnolari muhim ahamiyatga ega. “Kecha va Kunduz” romanidan olingan ushbu parchaning K. Fort tomonidan qilingan tarjimasini koʻrib chiqamiz:

- Qanday behayo bolasan! **Kap-katta toʻngʻizday** boʻlib qolibsana-u, sharm-u hayo qilmasdan, **nomahram** bor hovliga qaraysana-a! Soʻfi koʻrgunday boʻlsa, **“goʻsht ketdi” qiladi. Ha!!!⁷**

- “What a shameless child you are! You should know better, **big as you are**. Shamelessly looking into a home with **nomahram** women! If that Razzoq-sufi saw you, **he would rip you to pieces!**

Keltirilgan matnda bir nechta oʻrinlarga diqqat qaratish maqsadga muvofiq: avvalo, *kap-katta toʻngʻizday* birikmasining tarjima matnida tushirib qoldirilib, oddiy soʻzlar bilan ifodalanganini koʻramiz, negaki *katta* va *toʻngʻiz* soʻzlari orasidagi maʼnoviy bogʻlanish oʻzbek tili soʻzlashuvigagina xos boʻlib, ingliz tilida bunday assotsiativ maʼnoni yarata olmaymiz. Shuningdek, “goʻsht ketdi” jumlasini ham koʻchma maʼnoga ega birlik boʻlib, uni ingliz tiliga soʻzma-soʻz tarzda, aytaylik, “the meat has gone” qilib tarjima qilish notoʻgʻri boʻlar edi. Aynan shu tufayli tarjimon K. Fort bu oʻrinda maʼnoviy tarjimaga asosiy eʼtiborni qaratgan va *rip into pieces* birikmasini qoʻllagan. Aniqroq aytganda, bu oʻrinda soʻzma-soʻz tarjima usulini qoʻllash xato boʻlib, tarjima matnining toʻliq tushunilmay qolishiga sabab boʻlar edi, tarjimon esa bu vaziyatga tushmaslik uchun kerakli tarjima usulini qoʻllay olgan. Shunday boʻlsa-da, asliyat matnidagi *nomahram* soʻzi ingliz tilidagi matnga toʻgʻridan toʻgʻri koʻchirib oʻtilganligi xato boʻlgan, deb oʻylaymiz. Negaki, ingliz tilida bu maʼnoni anglatuvchi “non-mehram” soʻzi allaqachon mavjud, “nomahram” soʻzi esa oʻzbek tiliga oiddir.

Soʻzma-soʻz tarjima qilish ham maʼlum bir foydalarni beradi, jumladan, umumiy tarjima jarayonida undan “taglama” sifatida foydalanish mumkin⁸. Bu degani shuki, asarning soʻzma-soʻz tarjimasini kitobxonga shundayligicha taqdim etilmaydi, balki tarjimaning keyingi bosqichi – badiiy sayqal berish uchun asarning umumiy maʼnosini koʻrsatib turuvchi asos boʻlib xizmat qiladi. Sobiq sovet tuzumi davrida ittifoq tarkibidagi davlatlarda, jumladan Oʻzbekistonda ham, koʻplab yozuvchilarimizning asarlari rus tiliga shunday usulda tarjima qilinardi.

Tarjimaning keyingi usulini M.Gasparov *ijodiy tarjima* deb tanishtiradi. Bunday tarjimada asarning badiiy boʻyogʻini saqlab qolishga harakat qilinadi, buning uchun

⁷Choʻlpon A.. Kecha va kunduz. -Toshkent: “Sharq”, 2000. – B.7.; Oʻsha asar., B.77.

⁸<http://uz.denemetr.com/docs/768/index-481564-1.html>

tarjimon asardagi leksik, frazeologik birliklar, ko'chma ma'nolarni aniqlab, ularning ikkinchi tildagi alternativ (muqobil)ini qo'llaydi. Asarning tarixiylik, milliylik, obrazlilik va boshqa jihatlari saqlab qolingan holda u to'laligicha, badiiy hissiy ta'sir kuchini yo'qotmay turib boshqa tilga olib o'tiladi. Ijodiy tarjima boshqa turdagi tarjimonlik uslublaridan umuman farq qiladi, chunki unda g'oyaviy ma'no ham, badiiylik xususiyatlari ham chetda qolmaydi. Tarjimon o'zining ijodiy mahoratini ishga solgan holda, asarning kitobxonni jalb etuvchi badiiy ruhda bo'lishiga harakat qiladi. Biroq bu jarayonda haqiqiy asarning umumiy g'oyasidan, uning qadriyatlaridan uzoqlashib ketishga yo'l qo'yilmaydi.

Keyingi usul tarjimashunoslikda *hijjaviy tarjima* deb yuritiladi. Bu usul ko'p jihatdan so'zma so'z tarjimaga o'xshab ketadi, chunki unda ham so'zlar birma-bir tarjima qilib boriladi. Biroq, hijjaviy tarjimada matnning nafaqat leksik, balki grammatik tuzilishi, shakli ham saqlab qolinadi. Tarjimashunos olim Y.I.Resker so'zma-so'z tarjima va hijjaviy tarjima o'rtasida yana bir farq borligini aytadi. Unga ko'ra, hijjaviy tarjima usuli butunlay sodda bo'lib, unda barcha til unsurlari mexanik tarzda shunchaki ko'chirib o'tkaziladi. Milliylikka xos bo'lgan so'zlar, qadriyatlarga oid atamalar hijjaviy tarjimada to'g'ridan to'g'ri ko'chirib o'tkaziladi, uning o'rniga mos keluvchi so'z topilmaydi. Shu sababli tarjimaning bu usuli badiiy tarjimonlik asoslariga umuman to'g'ri kelmaydi. "Kecha va Kunduz" romanining K. Fort tarjimasidan namunani ko'ramiz:

*Covered in her **paranji**, she approached Umrinisabibi's door and stopped suddenly. She looked back and headed towards Xadichaxon's house⁹.*

Ushbu jumlada *paranji* so'zi o'zbek milliyligiga xos so'z bo'lib, ingliz tilida bu ma'noni anglatuvchi so'z mavjud emas, negaki ingliz xalqida *paranji* tushunchasi yo'q. So'zning ekvivalenti topilmaganda, uni tarjima tiliga to'g'ridan to'g'ri olib o'tish mumkinligi ta'kidlandi, biroq bu vaziyatda tarjima matnida *paranji* so'ziga biror izoh yoki qo'shimcha ma'lumot kiritib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'lardi, deb o'ylaymiz.

Erkin tarjimada asosiy urg'u asarning ma'no-mazmunini ochib berishga qaratiladi, undagi leksik, frazeologik birliklar, badiiy unsurlarga e'tibor berilmaydi. Bu usulni P.Nyumark "*semantik uslub*" deb ham ataydi. Qudrat Musaev o'zining tarjimashunoslikka bag'ishlangan asarida erkin tarjima haqida shunday yozadi: "O'tgan asrning o'rtalariga qadar tarjimaning bu illatli usulidan keng foydalanilgan. O'sha davr tarjimonlari badiiy asarni boshqa tilga o'girishda uning yozilish shakli, ma'noviy xususiyatlari, ifoda qilinish uslubini butunlay e'tibordan chetga surib, asarni shunchaki qisqa tarjima qilishga, uning umumiy mazmuninigina ifoda etishga

⁹ Fort C., Night and Day. –Central Asian Literatures in Translation. Boston, 2020. – P.134.

odatlangan edilar”¹⁰. Asar qahramonlarining nutqini tasvirlashga kam e’tibor qaratilib, ba’zi holatlardagina dialoglar keltirib o’tilgan. Badiiy-tasviriy ifodalar, uslubiy ma’no tashuvchi birliklar tushirib qoldirilib, ularning o’rni sodda ma’no tashuvchi leksik birliklar bilan to’ldirilgan, majoziy ma’nolarni tiklashga harakat qilinmagan. Asl asarda obrazli ifodalar, uslubiy bo’yoqlar bilan ta’sirchan, yorqin tarzda tasvirlangan holatlar tarjimada nursiz, tor doiradagi gaplarga aylangan. Asardagi tasvirlarni o’zgartirish, qahramonlarni o’zi istagandek tavsif etish, asarga istagan ma’lumotini qo’shib, istagan joyini tarjimada tushirib qoldirish odatiy holga aylangan edi. Hatto shunday holatlar ham bo’lganki, ba’zi tarjimonlar asar qahramonlarining ismlarini ham o’zgartirib, ularning o’rniga o’z mamlakatida tarqalgan ismlarni qo’yib ketaverganlar. Bu kabi holatlar asarning tarjima qilingan variantini uning aslidan butunlay uzoqlashtirib, uni tanib bo’lmay qiyofaga olib kelgan. Afsuski, asarni barcha badiiy unsurlari, tasvirlari bilan emas, uning tor va siqiq, qisqa tarjimasini o’qigan kitobxonda asar haqida, yozuvchi haqida butunlay noto’g’ri fikrlar shakllanib qolgan.

Adaptatsiya – moslashtirilgan tarjima. Bunday tarjima usulida asarning barcha jihatlari kitobxonning saviyasi, bilim va tushunish darajasiga moslashtiriladi. Bunda tarjimondan asarning badiiy qiyofasini ham e’tiborga olish talab etiladi. Bu usul ko’proq komediya asarlar tarjimasida foydalanilib, asarning asl variantiga juda erkin munosabatda bo’linadi. Asarning mavzusi, undagi qahramonlar, voqealarning umumiy xususiyatlari saqlab qolinsa-da, erkin tarjimada milliylik, ruhiy holat manzaralari, urf-odatlarlar tasviri kitobxon o’rgangan muhitga xos tasvirlarga almashtiriladi. Natijada badiiy asar o’zining badiiy qiyofasini yo’qotmagan holda bir tildan ikkinchi tilning milliylik olamiga kirib boradi. Tarjimonning asosiy yutug’i shu bo’ladiki, u asardagi ruhiy, milliy tasvirlarning kitobxonga asossiz ko’rinishidan saqlab, ularni kitobxon tushunadigan, zavq tuyadigan tilga olib o’tadi¹¹.

1930-1940 yillarda bunday tarjima usuli juda keng tarqaldi. Ba’zi tarjimonlar orasida hattoki asar qahramonlarini mahalliy ismlar bilan qaytadan nomlash, asardagi milliy, diniy bayramlar, marosimlarni o’zbekcha talqin qilib, mahalliy bayramlarga yaqin tarzda tasvirlash holatlari ham uchrab turgan.

Moslashtirishga asoslangan tarjimaning nima uchun paydo bo’lganligi haqida ikki xil qarash mavjud. Birinchisi, tarjimonning o’z badiiy salohiyatiga ishonmasligi va asarni tezroq tarjima qilishga intilishi bo’lsa, ikkinchi sabab sifatida tarjimonning badiiy asarni o’z xalqiga har tomonlama tushunarli va manzur bo’ladigan tarzda yetkazib berish istagi ko’rsatiladi.

¹⁰ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. - Toshkent: O’zbekiston Respublikasi FA «Fan» nashriyoti, 2005. – B.92.

¹¹ Ochilov. E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: 2012. – B.73-74.

Tabdil tarjima. Tarjima deganda har doim ham bir tildan boshqa begona bir tilga qilingan tarjimonlik tushunilavermaydi. Tarjima bir tildan shu tilning o'ziga nisbatan qilinishi ham mumkin. Bunday tarjima usuli tabdil deb ataladi. Faqat bunda til taraqqiyotining qaysidir tarixiy bosqichida qo'llangan shakli hamda hozirgi iste'moldagi til o'rtasidagi tarjima nazarda tutiladi. Shakl va mazmun har doim ham tengma-teng tarzda tarjima qilinmasligi mumkin, chunki kitobxonlarning saviyasiga ko'ra, ularga ta'lim berish maqsadida tarjimonlar ma'lum o'zgartirishlarni tarjimaga kiritadilar. Bunday tabdil tarjima asosan mumtoz asarlarni bugungi kun o'quvchisiga sodda, ravon va qisqa tarzda yetkazib berishda ishlatiladi. Bunday tarjima nasriy yoki she'riy tarzda bo'lishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning asarlari tabdili bunga misol bo'la oladi. A.Navoiy qalamiga mansub "Hayrat ul-abror" dostonining 5-sinf adabiyotida keltirilgan, kichik yoshdagi kitobxonlar uchun mo'ljallab yozilgan tabdili juda ravon va sodda tilda yozilgan bo'lib, ushbu tarjima usuliga yorqin misoldir. Asarni o'qigan kitobxon uning asl manbasini ham xuddi tabdil kabi tasavvur qilib, sodda talqin qilmasligi uchun bu asarning tabdil qilingan varianti ustiga bu haqida yozib qo'yiladi. Bunday asarlarning muqovasi hamda kirish qismida «tabdil qilingan» degan yozuvni ko'rishimiz mumkin.

Yana bir tarjima usuli bu *obrazlashtirish* asosidagi tarjima bo'lib, bu usul yana *idiomalashtirilgan* tarjima deb ham yuritiladi. Bunda tarjimonning badiiy asarda mavjud bo'lmagan tasviriy ifodalarni, badiiy vositalarni tarjimaga qo'shib yuborishi, muallifning shaxsiy uslubini buzib, turli xil birikmalar, his-hayajonni anglatuvchi birliklarni o'rinsiz va ko'p qo'llashi tushuniladi. Buning oqibatida asarning asl mazmuni, undan ifoda etilgan maqsad buzilib, uslubiy jihatdan noto'g'ri tuzilgan matn paydo bo'ladi. Albatta, ba'zan asarning asl variantida ham ko'plab obrazli tasvir ifodalari, badiiy unsurlar juda ko'p qo'llangan bo'lishi mumkin. Biroq bu asarning badiiylik qoidalariga zid ekanini anglatmaydi. Chunki har qanday muallifning o'z asarini badiiy-estetik jihatdan boy tarzda tasvirlashga intilishi tabiiy holat bo'lib, bunda asarning umumiy mazmun planiga, ravon o'qilishiga putur yetmaydi. Quadrat Musaevning izohiga ko'ra, obrazli tarjimada barcha badiiy-uslubiy vositalar soxtalik ustiga qurilgan bo'lib, tarjimaning obrazlilikini oshirish uchun ko'r-ko'rona, nihoyatda yasama tarzda asarga joylashtiriladi. Bunday holat kitobxonni yoqimsiz holatga tushiradi va unda asarning g'ayritabiiy va soxta tasavvur ustiga qurilgani haqida fikr uyg'otadi. Asarning asl nusxasi qanchalik badiiyatga boy bo'lishidan qat'i nazar, bu usulda tarjima qilingan kitob hech bir o'quvchida kuchli qiziqish uyg'ota olmaydi¹².

¹² Musaev, Q. Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi FA. «Fan» nashriyoti, 2005. – B.95.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Averintsev S.S. Philology. // M.: Russian language. Encyclopedia, 1979.
2. Арипова, К. Ю. (2021). The distinctive features of translation of the novel "night and day". Международный журнал искусство слова, 4(1-2).
3. Alekseytseva T.A. Explication as a way to overcome interlingual and intercultural asymmetries in translation. - abstract, dissertation... candidate of philol.sciences, 02/10/20, St. Petersburg State University - St. Petersburg, 2009.
4. Alisova T.B., Repina T.A., Tariverdieva M.A. Introduction to Romance Philology. - M.: Higher School, 2007. - 453 p.
5. English-Russian and Russian-English dictionary (short). Ed. O. S. Akhmanova and E. A. M. Wilson. M.: Russian language, 1990. - 1056 p.
6. Anichkov I.E. Idiomatics among linguistic sciences. // Anichkov I.E. Works on linguistics. - St. Petersburg: Nauka, 1997. P.101 - 145.
7. Antipov G.A., Donskikh O.A., Markovina I.Yu., Sorokin Yu.A. Text as a cultural phenomenon. - Novosibirsk: Science; Sib. department, 1989. - 196 p.
8. Apresyan Yu.D. About the works of I.E. Anichkov on idiomatics. // Anichkov I.E. Works on linguistics. - St. Petersburg: Nauka, 1997. pp. 70 - 87.
9. Arakin V.D. Comparative typology of English and Russian languages. -L.: "Enlightenment", 1979. - 259 p.
10. Arutyunova N.D. Problems of morphology and word formation (based on the Spanish language). - M.: Languages of Slavic cultures, 2007. -288 p.
11. Akbarova, S. K. (2022). PSYCHOLINGUISTIC FEATURES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO PRESCHOOL CHILDREN. Journal of Positive School Psychology, 6(2).
12. Aripova, K. Y. (2025). THE EXPRESSION OF NATIONAL AND CULTURAL UNITS IN THE ENGLISH TRANSLATION OF CHO'L PON'S NOVEL 'NIGHT AND DAY' (Based on Christopher Fort's Translation) The Use of Lexical-Stylistic Devices, Metaphor. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 5(2), 190-202.
13. Dilbar, K. (2025, May). Technology-Driven Evaluation Methods in ESL Education. In International Conference on MODERN EDUCATION AND INNOVATIVE APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES" (pp. 132-135).
14. Rikhsivayevna, S. B. (2021). Structural And Semantic Aspects of Lexemic Units Expressing National Value in English and Uzbek Languages. Eurasian Research Bulletin, 2, 37-39.

15. Ulmasbayeva, Malika Alisherovna (2024). TECHNOLOGIES FOR ENHANCING INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE PROCESS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES.. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (9), 138-143.